

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISHDA AMIR TEMUR SHAXSINING AHAMIYATI

Abdubannayev Azizbek Ma'murjon o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning markazlashgan davlat asoschisi sifatidagi faoliyati yoritiladi. Maqolada uning kuchli harbiy strategiyasi, adolatli boshqaruv tizimi hamda siyosiy islohotlari ilmiy tahlil qilib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Movoraunnahr, Xuroson, Amir Temur, Temur tuzuklari, harbiy mahorat, jang taktikasi, milliy vatanparvarlik.*

Buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temur dunyo siyosati va tamaddunida ulkan iz qoldirgan siymolardan biridir. Uning adolatli davlat boshqaruvidagi tajribasi bugungi kunda qay darajada ahamiyatli ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Amir Temur bobomizning hayoti davomida orttirgan boy tajribalari asosida qoldirgan o'g'itlari, davlat boshqaruvi va buyuk sarkardalik mahorati, bunyodkorlik ishlari har qaysi jamiyat uchun, uning rivoji uchun kerakli hujjat vazifasini o'taydi. O'zbek davlatchiligi tarixida Amir Temur shaxsining o'rni beqiyos u nafaqat buyuk sarkarda, balki markazlashgan va kuchli davlat asoschisi sifatida ham tarixda nom qoldirgan. XIV asrning ikkinchi yarmida Amir Temur tomonidan asos solingan davlat butun Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq hududlarida kuchli siyosiy ta'sirga ega bo'ldi. Uning davlat boshqaruvi ichki va tashqi siyosati, qonun-qoidalari va iqtisodiy islohotlari kelgusi avlodlarga ulkan meros bo'lib qoldi. Amir Temur o'z davri va zamonasiga ko'ra markazlashgan yirik davlatga asos soldi va bu bilan xalqiga, yurtiga beqiyos xizmat qildi. Amir Temur Movarounnahrni ozod qilgach, bu yerda istiqomat etuvchi ko'pchilik aholi turkiy xalqlar tiliga rivoj berishga harakat qiladi. Bu hol uning siyosiy va harbiy tayanchi bo'lgan turkiy qabilalarning bir maqsad yo'lida jipslashuviga sharoit yaratadi. “Temur hokimyat tepasiga kelgan dastlabki oylardanoq uning say-harakati bilan Samarqandning qal'asi bunyod etildi. Shahar balandligi 8 metrlik devor bilan o'rab olindi. Uning amri va rahbarligi ostida Shohizindada juda katta tamirlash va qurilish ishlari olib borildi” [1:580]. Ushbu davrda bunyodkorlik ishlari birmuncha rivoj topdi.

Temuriylar saltanatining tashkil topishining asosiy omillaridan biri Amir Temur bayrog'i ostida birlashgan O'rta Sharqning barcha turkiy xalqlarining birgalikdagi harbiy muvaffaqiyatlariga ham bog'liq bo'lgan. Amir Temur davlati garchi qisqa vaqt mavjud bo'lib, uning vorislari davrida saltanat tanazzulga yuz tutgan bo'lsa ham, Amir Temur va temuriylar davridagi harbiy sohaning erishgan yuqori darajasi, otliq qo'shinlarning jang olib borish taktikalari, qurollanish kabi jihatlari keyingi davrlarda hukm surgan davlatlar harbiy sohasida o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmadi.

Sohibqiron Amir Temurning sarkardalik dahosi, harbiy iste'dodi va mahorati hamda o'sha davrdagi mamlakat iqtisodiyotini chuqur bilganligi jahonshumul obro'-e'tibor va shuhrat qozonishida muhim omillardan hisoblangan. Amir Temur bobomiz mukammal harbiy-siyosiy tizimni yaratdi va bu tizim keyinchalik yirik davlatlar boshliqlari, sarkardalariga muhim dastur vazifasini o'tadi. U lashkariy qismlarni Chingizxon

davridagidan ham mukammalroq qayta tashkil qildi va harbiy san’at orqali kuchli mudofaa tizimini yaratdi. Amir Temur harbiy ilmi salohiyati orqali davlatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bilan birga dunyo geosiyosiy maydonida yetakchi mavqeini egalladi. Ya’ni o’z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqand shahriga ko’chib o’tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Sohibqiron aniq mulohazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish va uzoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo’lgan yerda markazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli dastlab mamlakatni tashqi xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug’lari tashkil etgan yengilmas va jangovar milliy qo’shin tuzib, ularga katta imtiyozlar beradi.

Amir Temur bobomiz davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan, o’z qo’shinlariga suyanganligi sababli harbiy islohotga, harbiy intizom masalalariga keng e’tibor bergan. U qo’shinlarini o’nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo’lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini bilishi farz hisoblangan. Arab tarixchisi Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo’y kishilar ko’p bo’lgan. Amir Temur doim jangda jasorat ko’rsatgan amirlar va askarlarga alohida e’tibor bilan qaradi. Natijada sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo’shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o’z davlatining poydevori bo’lgan qo’shin tuzishga muvaffaq bo’ldi. Amir Temur o’zining hayoti davomida harbiy iste’dodi, mohir sarkardaligi, diplomatligi va yetuk davlat arbobi bo’lganligi sababli milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug’orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzdi. Sohibqiron turk-mo’g’ul an’analariga amal qilgan holda o’z davlati hududlarini suyurg’ol (ulus) tariqasida in’om qilish yo’li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrdan tashqaridagi yerlarini to’rt ulusga ajratib, farzandlariga berdi. Garchi sohibqiron tomonidan bo’lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka ega bo’lsalar ham, lekin amalda batamom markaziy hokimiyatga bo’ysunganlar. Sohibqironning o’ta darajada zukkoligi shundaki, u uluslar o’rtasida o’zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning faoliyatini doimo nazorat qilib turgan. Amir Temur vazirlar tanlashga ham alohida e’tibor bergan. Sohibqiron bobomiz vazir to’rtta sifatga ega bo’lishi lozim deb hisoblagan. Birinchisi-toza nasllilik, ikkinchisi- aql-farosatlilik, uchinchisi-sipohilik raiyat ahlidan xabardorligi, to’rtinchisi-sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik ham keng rivojlangan. Temurning sa’y harakatlari bilan Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi.

Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar anchagina bo’lib, ular orasida “Temur tuzuklari” buyuk sohibqiron hayotiga va faoliyatiga bag’ishlangan bo’lib asarlar ichida alohida ahamiyat kasb etadi. “Temur tuzuklari” jahonning mashhur kutubxonalaridan joy olgan qimmatli asardir. “Temur tuzuklari” ikki qism, 56 banddan iborat tarixiy, huquqiy asar hisoblanib, Amir Temurning davlatning tuzilishi va mamlakatlarni boshqarish xususidagi nuqtayi nazari bayon qilinadi. “Temur tuzuklari”ning birinchi qismida Amir Temurning 7 yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida bayon etilgan bo’lsa, ikkinchi qismi sohibqironning nomidan aytilgan va uning toju-taxt vorislariga atalgan o’ziga xos pandu nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarning burchi va vazifalari, vazir va qo’shin boshliqlarining burchi va vazifalari,

amirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokozolar haqida gap boradi. Amir Temur davlat qudratini mustahkamlash, mamlakatni yuksaltirish borasida boshqa hukmdorlardan farqli o‘laroq, orttirilgan ne‘matlarni jamiyat rivojiga, ma‘naviy yuksak va qudratli davlatni bunyod etish ishlariga sarflaydi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida keltirilishicha, Amir Temurning olimlar va fuzalolar oldida qilgan nutqida “Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tinchlik va tartibni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishga menga o‘z maslahatingiz bilan ko‘maklashishingiz kerak. Agar oldin bizning diqqat e‘tiborimizda o‘zga mamlakatlarni ishg‘ol qilish uchun bo‘lgan harbiy yurishlar turgan bo‘lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o‘rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir” [2:53]. Ushbu fikrlardan xulosa qilish mumkinki, Amir Temur mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqarolarning turmush va farovonligini oshirish, yurtda obodonchilikni, kuchaytirishda olim-u fuzalolarning, ziyolilarning bilim va tajribalariga asoslangan. Amir Temur o‘zbek xalqi va o‘zbek davlatchiligi tarixida, uning taraqqiy etishi va markazlashgan yirik saltanat darajasiga ko‘tarilishida ma‘naviy hayot, bunyodgorlik va ilmiy sohaning yuksalishida beqiyos xizmat ko‘rsatgan shaxs Sohibqiron qisqa vaqt ichida kuchli va markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. U davlat boshqaruvi, harbiy san‘at va iqtisodiy siyosatda katta muvaffaqiyatga erishib, o‘zidan barqaror va buyuk meros qoldirdi. U asos solgan boshqaruv tamoyillari keyingi asrlarda ham qo‘llanilib, davlat qurilishining muhim namunasiga aylandi. “Men,- deydi Amir Temur,- butun Movarounnahr viloyatiga, to Jayhun daryosining sohillarigacha yerlarga hukmron bo‘ldim... Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan” [3 :19]. Erksevar xalqimiz mustaqillik tufayli o‘z yeri, o‘z tili, o‘z diniga ega bo‘ldi; milliy g‘ururi, izzat obro‘si tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma‘naviy merosimizdan bahramand bo‘lmoqdamiz.

Amir Temurning dunyoda eng ulug‘ va buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo‘lgan fazilatlar “Temur tuzuklari” da o‘z ifodasini topgan. Bu fazilatlar:

Birinchisi va eng asosiysi Islom dini, Qur‘oni Karim va uning g‘oyasiga cheksiz sadoqatda. “...har yerda va har vaqt Islom dinini quvvatladim”, deydi u. “Yana tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu oyin (Oyin – qoida, rasm, tartib, usul, odat) asosida qurulmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xshab, uni ko‘rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi. Amir Temurning fikricha, eng xavfli hamda uning uzrini kechirib bo‘lmaydigan navkar bu jang maydonida o‘z begiga xiyonat qilgan navkardir. “...Bunday kimsani,— deb yozadi u,- xizmatga yo‘latmasinlar. Hayotning o‘zi bundaylarning qilmishiga yarasha jazosini beradi” [4:88].

Amir Temurning davlatchilikka oid qarashlaridagi muhim masalalardan bo‘lgan davlatning uch belgisi to‘g‘risida juda aniq o‘z fikrini bildiradi: “...davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tig‘dir” [5:76]. Bundan aniq ko‘rinib turibdiki, Amir

Temur davlat saltanatini xazinasiz, lashkarsiz tasavvur qilolmaydi. Har qanday mustaqil davlat ana shu yuqoridagi belgilarga ega bo'lishi shart, aks holda esa unday davlat mustaqil bo'la olmaydi, deydi u va vazirlarni raiyatga, elga, vatanga xizmat qilishda halollik, poklik, adolatlilik tamoyillariga amal qilishga da'vat etadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki Amir Temur eng avvalo markazlashgan davlat asoschisi. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi. Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyotini rivojlantirish davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Biz tarixdagi ulug' zotlarni tog'ning eng yuqori cho'qqilariga o'xshatishimiz mumkin. Tog' cho'qqisining salobati bizni qanchalik bosib tursa, uning atrofidagi siru sinoatlar bo'lib o'tgan g'aroyib voqealar shunchalik qiziqarlidir. Bu borada biz siyosiy, harbiy, iqtisodiy omillar qatorida yana bir o'ta muhim mezon borki, uning nomi-milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.Ahmedov Amir Temur T.: A.Qodiriy, 1995.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma T.: Sharq, 1997.
3. Temur tuzuklari. H.Karomatov tarjimasi. –T.: G'afur G'ulom, 1991.